

Jamiyat to'g'risida ma'lumot

“Andijon biokimyo zavodi” AJ 1953 yilda gidroliz zavodi sifatida tashkil topgan. Zavod asosan fufurol, ozuqa xamirturushi, fufurol sperti va boshqa maxsulotlar ishlab chiqqagan. 1994 yilda zavod qayta rekonstruktsiya qilinib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining qaroriga asosan etil sperti ishlab chiqaruvchi biokimyo zavodiga aylantirilgan. So'ng Vazirlar Mahkasining 1999 yil 26 noyabrdagi “2000-2001 yillarda xorijiy investorlarni jalb qilgan holda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 511-sonli qaroriga xamda Davlat mulk qo'mitasining 2000 yil 7 noyabrdagi 167-PO sonli buyrug'iga asosan “Andijon biokimyo zavodi” ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgan.



Andijon 2013-yildan

Jamiyat aksiyadorlarining 2014 yil 1-avgustdagagi navbatdan tashqari umumiyligini yig'ilish qaroriga asosan va “Aksiyadorlik jamiyatatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi yangi qonuniga muvofiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilib, Andijon shaxar xokimligi xuzuridagi tadbirdorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspektsiyasi tomonidan 2014 yil №8896 raqami bilan ro'yxatga olinib, jamiyatning yangi taxrirdagi ustavi va guvoxnomasi olindi.



“Andijon biokimyo zavodi” aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi 22 067 749 ming so'mni tashkil etib, jami aksiyalar soni 5 414 070 dona. Shundan 2 762 020 donasi 51,02 % aksiya paketi “O'zsharobsanoat”ga, 2437080 donasi 45,01 % aksiya paketi tashqi investorlarga sotish uchun davlat mulkini boshqarish organida, 214970 donasi 3,97 % aksiya paketi mexnat jamoasining ulushi xisoblanadi.

Jamiyatning asosiy faoliyati

ozuqali etil spirtini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish;

korxona, tashkilot va fuqarolarga xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish soxasida ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish va sotish shuningdek ishlab chiqarish-texnik maqsadlar uchun maxsulotlar ishlab chiqarish;

yangi texnologiyalarni joriy etish va qayta ishslash, Nou-XAU, yangi maxsulotlar ishlab chiqarish va sotish, marketing va innovatsiya soxalarida xizmatlar ko'rsatish;

Savdo do'konlarini tashkil etish, ulgurji va chakana savdolarni amalga oshirish;

binolarni, ko'chmas va ko'char mulklarni ijara berish;

tashqi iqtisodiy faoliyat, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq eksport-import operatsiyalari faoliyati bilan shuqullanish;

axoliga transport, komunal va tibbiy xizmatlar ko'rsatish;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ta'qiqlanmagan boshqa faoliyatlar tulari bilan shuqullanish.

Korxonaning umumiyligini maydoni 57,49 hektar bo'lib, undan 43,69 hektari uzumzor yordamchi xo'jaligi, 9,208 hektar er maydoni ishlab chiqarish, 1,0 hektar yopiq er maydonlari, 3,512 hektar temir yo'l va avtotransport er maydonlari qamda gimnastika maktabini 0.08557 hektar er maydoni mavjud.